

BOBORAHIM MASHRABNING TASAVVUFIY QARASHLARIDA NUR TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI XUSUSIDA

Badridinova Nilufar Sadridinovna-Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada mab dai nur, ya'ni nurning kelib chiqish joyi bo'lib, islom falsafasi kategoriyasi sifatida nur ilohiy haqiqat, diniy bilimlarni ifodalovchi ilohiy nur haqidagi ta'limot, qalbiy ilm sifatida qo'llanilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: borlik, talimot, ilohiy nur, diniy bilim, yulduzlar doirasi, falsafiy tafakkur, ilohiy ishq, tashqi olam.

О СОДЕРЖАТЕЛЬНОЙ СУЩЕСТВЕ КОНЦЕПЦИИ СВЕТА В МИСТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ БОБОРАХИМ МАШРАБА

Бадридинова Нилуфар Садридиновна-Бухарский инженерно-
технологический институт независимый исследователь

Аннотация: Мабдаи Нур, то есть место зарождения света, как категория исламской философии, свет используется как божественная истина, учение о божественном свете, представляющее религиозное знание, оккультную науку.

Ключевые слова: существование, учение, божественный свет, религиозное знание, звездный круг, философское мышление, божественная любовь, внешний мир.

ON THE CONTENT ESSENCE OF THE CONCEPT OF LIGHT IN THE MYSTICAL VIEWS OF BOBORAHIM MASHRAB

Badridinova Nilufar Sadridinovna - Bukhara Institute of Engineering and
Technology independent researcher

Abstract: Mabdayi Nur, that is, the place of origin of light, as a category of Islamic philosophy, light is used as divine truth, the doctrine of divine light representing religious knowledge, occult science.

Key words: existence, teaching, divine light, religious knowledge, circle of stars, philosophical thinking, divine love, outer world

Kirish. Inson avvalo, o'z atrofini o'rganib, hayot va koinot sirlarini bilishi natijasida, ilk irfoniy tasavvurlari, taxayyullari ham yuzaga kelib, inson tafakkuri taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi. Borliqning barcha shakllari, ya'ni tabiat, inson,

ma'naviy borliq nurga to'ladir. Olam nurga to'la bo'lib, nur-olamning nuridir. Bu haqda Aziziddin Nasafiy quyidagi baytni keltiradi:

Mard boyad, ki bo'y donad burd,

Varna olam pur az nasimi sabost.

Mazmuni:

Mard ulkim, ifor ajrata bilar,

Yo'qsa olam sabo yeliga to'la¹.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Islom dini yoyilishidan ancha oldin, Qadimgi Messopotamiya, Hindiston hamda Yunoniston falsafiy tafakkurida ilohiy haqiqat, ilohiy nur haqidagi ta'limotlar vujudga kelgan. Gnostiklar ta'limotida xudo va materiya o'rtasidagi tafovut tahlil qilingan. Buning natijasida gnostiklar emanatsiya(ya'ni, ilohiy nurlanish), demurg haqidagi ta'limotni kiritganlar². Bu ta'limot bo'yicha, ilohiy nurlanish jarayonida ruhiylik kamayib, moddiylik ko'payib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Avesto" kitobiga binoan, Koinot, yer, okean, osmon, nurli doira va jannatdan iborat. Yer dumaloq bo'lib, atrofi okean bilan o'ralgan va obu-havo, yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan yetti qismdan iboratki, bu bobilliklarning yetti shamollar haqidagi qadimgi tasavvurlaridan iqtibos qilingan. Osmon to'rt doiradan tashkil topgan: yulduzlar doirasi, oy doirasi, quyosh doirasi va jannat doirasi yoki nur makoni. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning badani sifatida tasvirlanadi. Ular hurmatga sazovor edilar³.

Ilohiy nurlanish tushunchasi Moniy ta'limotida ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Moniy xristianlikni, zardushtiylik va boshqa sharq dinlarini o'ziga xos tarzda birlashtirishga harakat qilgan ta'limot hisoblanadi. Ushub ta'limotda "dastlabki odam shunday bir mohiyatdagi ilohiy nurlanish natijasida vujudga kelganki, bu mohiyat, o'z navbatida undan yuqoriroq ilohiy nurlanish bosqichidan o'tgan. Jon nurining inson tanasining qulligidan qutulishi insonning

¹ Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 2021. - Б.26.

² Йўлдошев С, Усмонов М.Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 137

³ Ахмедова М.Б. Фалсафа. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – Б.31.

qutqarilishidir”⁴. Moniy olamning borligi va ko‘rinishlari haqida to‘xtalib “nur olamlariga, qadimgi insonlar va “hayot ruhiga” (ishonishga) da’vat etadi. Nur va zulmat qadimdan bor va bu ikkisi azaliy”⁵- degan fikrni keltiradi.

Tahlil va natijalar. Forobiy fikricha, fazilat ruh lazzatining sababidir. “Sen bundan g‘aflatda eding va biz sening qarshingdagi pardani ko‘tardik va sening ko‘rar ko‘zing ushbu kunda katta ochildi”⁶. Mutafakkir Qur’ondagi “Qof” surasining 23-oyatini asos sifatida keltirmoqda. Forobiy qarashlarida tana hijobi insonni ruh lazzati va ilohiy nurni mushohada qilishda hijob ekanligini, ya’ni dunyoviy narsalarga aloqadorlik ruh qarshisida parda bo‘lib kelishini ta’kidlaydi.

Kishi o‘zini tashqi olamga qarshi qo‘ya turib, katta xatolikni sodir qiladi va o‘zini haqiqiy, asliy tomonini bilishda o‘zi to‘sqinlik tug‘diradi. Insonning ruhiy olami zehniy-xorijiy tomonlarining yagona asosi aslidir. O‘shaning o‘zi haqiqiy Nur, Aql yoki Ruhdirki, odam va qavn o‘shanga bog‘liq. Nosir Xisrav she’riyatining markazida – haqiqat izlovchi, qidiruvchi shaxs turadi. Mutafakkir ilohiy nurni tahlil qilib, barcha narsalarni raqamlar kombinatsiyasi orqali tushuntirishga urinadi. Masalan uch raqamini ifodalashda Avestoning Gotlar qismidagi uchlikni eslatuvchi oliy uchlikka taqqoslaydi. “Yagona xudo – xoliq, uning birinchi nuri – Umumiy Aql va keyingi nuri – Umumiy ruhni anglatadi”⁷. Bahouddin Naqshbandning barcha sonlarning asosida bir soni turishi va barcha borliqning ko‘rinishlarining asosi bir – ahad deyish bilan barcha zohir bo‘layotgan, ko‘rinayotgan narsalar ilohiy nurning tajalliysi ekanligini ta’kidlaydi⁸.

Qur’onda nur Allohning o‘zini ham anglatgan (osmonlar va yer nuri) va Uni o‘z payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) orqali yuborgan vahiyalar nuri hisoblanadi. Bu – “toza nur”, “nur ustiga nur” uni olovga qiyoslab bo‘lmaydi. Chunki, u yerdan tashqarida paydo bo‘lgan.

Tasavvuf ta’limotida Alloh avval Muhammad alayhissalomning nurini (Aqli

⁴ Йўлдошев С, Усмонов М.Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.138

⁵ Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент, 1968. – Б. 241, 242.

⁶ Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (Ўрта асрлар). - Т.: ТошДШИ нашриёти. 2009. – Б.97.

⁷ Носир Хисрав. Жамиял ҳикматайн (Икки донишмандлик уйғунлиги). –Техрон-Париж. 1953. –Б.52-58.

⁸ Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва илмий мероси. – Тошкент: Фан, 2021. – Б.109.

kull yoki nafi kull) yaratdi. So'ngra shu nur tufayli olamlarni va odamlarni yaratdi⁹. Demak, olamning mohiyatida avvalo Muhammad nuri tashkil qiladi. "Alloh osmonlar va yerining nuridir"¹⁰. Payg'ambarning nuri Uning izzat nuridan, valilar va mo'minlarning nuri esa Payg'ambar nuridan hisoblanadi. Demak, nur faqat Allohnik. Ushbu ikki oyatning siri ham ana shunda: "Kim kuch-qudratni istaydigan bo'lsa, bas, barcha kuch-qudrat Allohnikidir"¹¹.

Ilohiy nur payg'ambar va valiy qalbida porlab turadi. Valiylarning qalbiga Alloh nuri ilhom asosida kirgan bo'lib, ilohiy nur orqali shunday sifatga ega bo'lgan zotlar hisoblanadi. Naqshbandiya ta'limotiga ko'ra, "Valiy qalbi ma'dani anvari jaloldir. Valiy yuzidagi nur va latofat valiy qalbidagi ana shu anvordandir. Ul nurning aksi valiyning siymosidan zohir bo'lur va har kim uning yuziga nazar aylasa, ul kishi Haqq taoloni yod etar va uning zikriga mashg'ul o'lur".¹² Muhammad Porso "Risoi qudsiya" asarida Bahouddin Naqshband haqida aytgan edi:

Gasht be kibru, riyoyu kina,
Nuri qudsiro ruxash oina.
On liqoi o' javobi har savol,
Mushkil az o' hal shavad be qilu qol¹³.

Mazmuni:

Kibr, riyo, kinasiz bo'ldi,
Yuzy qudsiy nur oinasidir.
Uning yuzi barcha savollarga javob,
So'zsiz undan mushkul hal bo'ladi.

Xoja Alouddin Attornig (Alloh u zotni rahmat qilsin) shunday deganlarini eshitgandim: "Agar Uning jamoli bo'lmaganda jaloli butun dunyoni kuydirib yuborgan bo'lar edi va agar jaloli bo'lmaganda bu dunyoni yoqib yuborgan bo'lar

⁹ Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – B. 41.

¹⁰ Qur'oni Karim. Nur surasi (24.18.). Tarj. Shayx Abdulaziz Mansur. -Toshkent: Movarounnahr, 2020. – B.350.

¹¹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy ha'at. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B.140.

¹² Navruzova G.N. Hoja Bahouddin Naqshband ha'ati va ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 2021. – B.81.

¹³ Navruzova G.N. Hoja Bahouddin Naqshband ha'ati va ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 2021. – B.81.

edi”¹⁴.

Xojagon tasavvufiy ta’limotining falsafiy asosi “vaxdati-vujud” bo’lib, borliq – yagona asl zotning tajalliysi, nuri deb qaraladi. Ular ta’limoti bo’yicha, butun borliq Haqning jamol va jalolining tajalliysi va ko’rinishlaridir. “Qalb to’la soflikni topganidan so’ng, - deb yozadi Xoja Ali Romitaniy, - unda vahdoniyatning nuri porlar, u tajalliy ahli bo’lur”¹⁵. Turk olimi Usmon Turorning fikricha, “vahdati vujud” aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishiladigan bir “irfon” bo’lib, aqliy nazariy emas”¹⁶. Tasavvufdagi “zot” tushunchasi zamonaviy dialektikadagi “substansiya”, “tajalli” tushunchasi esa “aksidensiya” tushunchasi bilan Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafasi tarixida butun mavjudotning bosh asosini ifodolovchi tushunchalardir. Substansiya tushunchasi substrat – negiz, konkret asos ma’nosini anglatadi. Arastu ta’limoticha, substansiya - mohiyat, barcha narsalarning real asosi, borliqni substansiya tushunchasisiz tushuntirib bo’lmaydi, deb ta’kidlaydi. Arastu “Kategoriyalar” da “Birinchi mohiyat bo’lmaganida boshqa narsalarning ham bo’lishi mumkin emas edi”,¹⁷ deb yozadi. Birinchi mohiyat o’zgarmasdir.

Tajalliy – “Xudoning namoyon bo’lishi”, Allohning dunyoda namoyon etishi. Bu tushunchani dastlab basralik zohid Raboh ibn Amr al – Qaysiy (796 yilda vafot etgan) kiritgan.¹⁸

Inson ko’rishni, eshitishni, bilishni o’z kamoliga to’g’ri foydalansa zulmatdan nurni ajratib, nurni o’zi qanday bo’lsa shunday ko’radi. Nur hammada mavjud, ammo ayrimlarda uning kuchi kamroq hisoblanadi. Agar nur qancha kuchli bo’lsa, unda ilm va ma’rifat ko’proq bo’ladi. Nurning quvvati asosan halol luqma va qalbni zang g’ubordan poklashi natijasida hosil bo’ladi.

الله نور السماوات والأرض مثل نوره كمشكاة فيها مصباح المصباح في زجاجة
الزجاجة كأنها كوكب دري يوقد من شجرة مباركة زيتونة لا شرقية ولا غربية يكاد زيتها

¹⁴ Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G’aznaviy al-Charxiy. Sharhi navadu nuh nom. O’zRFA ShI xazinas, inn. № 5478/ V. - B. 170

¹⁵ Ромитоний Хожя Али. Рисолаи Ҳазрат Азизон. 1327 й. Бухоро вилоят музейи. Инв. –№ 12548/II. –Б.25.

¹⁶ Усмон Турор. Тасаввуф тарихи. –Т.: Истиқлол, 1999. –Б.155.

¹⁷ Фалсафа Қомусий луғат. –Т., 2004. – Б.381.

¹⁸ Ислон. Энциклопедияси. –Т., 2004. – Б.22.

يضيء ولو لم تمسسه نار نور على نور يهدي الله لنوره من يشاء ويضرب الله الأمثال للناس والله بكل شيء عليم¹⁹

Mazmuni: Alloh yeru osmonning nuridir. Uning nuri misoli bir tokcha ichidagi chiroq. Bu chiroq bir shisha ichida. Shisha esa durdan yasalgan yulduzga o'xshaydi. U yerning markazidagi muborak zaytun daraxti moyidan yoqiladi. Moy musaffoligidan olov tegmasa ham atrofni yoritib yuboray deydi. Olov tekkach nur ustiga nur qo'shiladi. Alloh bu nurga o'zi xohlagan bandasini musharraf qiladi. Alloh odamlarga ana shunaqa misol keltiradi. Alloh barcha ishni biladi-da.

Payg'ambarimiz hadislarida farishtalarning nurdan yaratilgani hakida aytib o'tilgan. Biz farishtalarni ko'zimiz bilan ko'rolmasak ham ularning borligini inkor etmaymiz. Yukorida aytganimizdek, bizning ko'zimiz yorug'lik nuri tezligi sekundiga 300000 kilometrgacha harakat kiladigan narsalarnigina ko'ra oladi, undan tezroq xarakat kiladigan narsalar esa ko'zdan g'oyib bo'lib ko'rinmay ketadi. Shuning uchun inson ko'ziga ko'rinmaydigan, ammo bor bo'lgan narsalarni yo'qqa chiqarishi to'g'ri emas.

Xulosa va takliflar. Agar biz barcha his-tuyg'ularimizni o'lchash uchun ularni tebranish shkalasiga qo'yadigan bo'lsak, eng past chastotalarni jahl, adovat, hasad, manmanlik kabi salbiy hislar egallaydi. Eng baland quvvat tebranishlar chastotasida esa muhabbat yotadi! Koinot rivojining evolyusiyasi shundayki, barcha yaratilmish narsalar, jonzotlar past tebranish chastotasidan eng baland chastota tomon intilib rivojlanadi. Eng baland tebranishlar chastotasi o'zida ilohiy nurni mujassamlashtiradi. Har bir odamning boshi atrofida uning shaxsiyati, ruhiyati kuchli, kuchsiz bo'lishiga qarab ko'zga ko'rinar-ko'rinmas nur taralib turadi. Ana shu nurli xalqa - nurchambar aura, ya'ni inson aurasi deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2021. - B.26.
2. Yo'ldoshev S, Usmonov M.Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 137

¹⁹ Имом Абу Абдурахмон Муҳаммад ибн Хусайн ибн Мусо ал-Аздий ас-Суламий. - Байрут, Либнон. Дор - алкутуб ал-илмийя, 2001. – Б.500.

3. Axmedova M.B. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatiyu, 2006. – B.31.
4. Yo‘ldoshev S, Usmonov M.Karimov R. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy Yevropa falsafasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.138
5. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent, 1968. – B. 241, 242.
6. Qur‘oni Karim. Nur surasi (24.18.). Tarj. Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Movarounnahr, 2020. – B.350.
7. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufmy hayot. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B.140.
8. Navro‘zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 2021. – B.81.
9. Navro‘zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 2021. – B.81.
10. Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Sharhi navadu nuh nom. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ V. - V. 170
11. Romitoniyo Xoja Ali. Risolai Hazrat Azizon. 1327 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II. –B.25.
12. Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999. –B.155.
13. Falsafa. Qomusiy lug‘at. -T., 2004. – B.381.
14. Islom ensiklopediyasi. –T., 2004. – B.22.
15. Imom Abu Abdurahmon Muhammad ibn Husayn ibn Muso al-Azdiy as-Sulamiy. - Bayrut, Libnon. Dor - alkutub al-ilmiyya, 2001. – B.500.